

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI QO‘LLAB-QUVVATLASH MASALALARI****ISSUES OF SUPPORTING BUSINESS ENTITIES THROUGH FINANCIAL AND CREDIT MECHANISMS****¹Ergashev Otamurod
Tashtemirovich***¹PhD., TDIU mustaqil izlanuvchisi***Annotatsiya
Annotation**

Uzb - Maqolada tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish, ularning faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlash borasida mahalliy va xorijiy olimlarning yondashuvlari o‘rganilgan hamda tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish modellari va ularning faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag‘batlantirish vositalari yoritilgan.

Eng - The article examines the approaches of local and foreign scientists to organizing the activities of business entities and supporting their activities through financial and credit mechanisms, as well as the models of organizing business entities and means of stimulating their activities through financial and credit mechanisms.

**Kalit so‘zlar:
Keywords:**

- ❖ *tadbirkorlik subyektlari, moliya-kredit mexanizmlari, barqarorlik, rag‘batlantirish, mikrofirma, kichik korxonalar, o‘rta korxonalar.*
- ❖ *business entities, financial and credit mechanisms, stability, incentives, micro-firm, small enterprise, medium-sized enterprise.*

Kirish.

Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatning turi bo‘lib, uning asosiy maqsadi nafaqat korxonani yaratish, balki uning daromadli ishlashini ta‘minlashdan iborat. Tadbirkorlik faqat kapitalga egalik qilish yoki uni boshqarish bilan cheklanmaydi. Tadbirkorlar oldida biznesni rivojlantirish imkoniyatlarini izlash hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish vazifasi turadi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aholining moliyaviy mustaqilligini ta‘minlashga asoslangan strategiyadan foydalanish natijasida ularni tadbirkorlikka jalb etish orqali mamlakatning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Mamlakatimizda ham tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rag‘batlantirish borasidagi ustuvor vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmonida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish hamda 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish lozim” [1]. Iqtisodiy o‘shishga erishish yo‘lida davlat tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag‘batlantirishi va

o'zaro manfaatli hamkorlik aloqlarini o'rnatishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

R.Kantilon, Y.Tyunen, J.B.Sey fikriga ko'ra, tadbirkor o'ziga tavakkalchilikni oluvchi shaxs hisoblanadi [3]. Ushbu iqtisodchi olimlar tadbirkorlik tushunchasini tavsiflashda asosiy e'tiborni mehnatga qaratishgan bo'lib, tadbirkorlik faoliyatida ustuvor omil sifatida ishchi kuchini ko'rishgan.

Y.Shumpeter tadqiqotlarida tadbirkor tavakkalchilikni o'z bo'yniga oluvchi shaxs sifatida tasvirlanib, ixtiro va yangiliklar asosida moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, faoliyat ko'lamini kengaytiradi hamda mamlakatning iqtisodiy o'sishiga o'z hissasini qo'shadi deb ta'kidlaydi [4]. Ushbu ta'rif tadbirkorlik subyektlarining daromadga ega bo'lishini faqat mehnat faoliyati bilan cheklab qo'ymaydi, balki ilmiy izlanishlar olib borish va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish orqali iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini ifodalaydi.

J.M.Keyns fikriga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati doimo barqaror rivojlanmaydi, shu bois, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash talab etiladi [5]. Yuqoridagi tadqiqotlardan farqli o'laroq, Keyns tadbirkorlik subyektlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga alohida e'tibor qaratgan.

Iqtisodchi M.A. Есенин kichik va o'rta biznes subyektlarini qonun hujjatlarida belgilangan tashkilotlarning ma'lum bir toifasi sifatida tavsiflaydi [6]. Tashkilotlar sinfini o'rganilayotgan ta'rifning asosi sifatida ajratib ko'rsatish orqali muallif faqat amaldagi qonun hujjatlariga murojaat qiladi.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor P.B. Калиничевaning ta'kidlashicha, kichik va o'rta biznes subyektlari jamiyatda muayyan funktsiyalarni bajaradigan qoidalar va tartibli xatti-harakatlar modellariga asoslangan tashkilotning ma'lum bir shakli hisoblanadi [7].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.O'lmasov va M.Sharifxo'jayevlar kichik

tadbirkorlik subyektlari faoliyati mohiyatini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlarida "tadbirkorlik faqat pul topish emas, balki yaratuvchanlik faoliyati orqali daromad olish omilidir" deb ta'kidlaydilar [8]. Ushbu olimlarning ilmiy izlanishlari Y. Shumpeter tomonidan ilgari surilgan nazariyaga o'xshash bo'lib, tadbirkorlikni innovatsiyalar, iqtisodiy o'sish va texnologik rivojlanish bilan chambarchas bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Ularning tadqiqotlari ham tadbirkorlikning yangi g'oya va ixtirolar orqali bozorga ta'sirini, shuningdek, raqobatbardoshlik va iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini o'rganishga qaratilgan.

H.P.Abulqosimov, M.H.Abulqosimov, S.R.Topildiyevlar fikriga ko'ra, tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi sog'lom raqobat muhitini shakllantirish davlatning asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi [9]. Sog'lom raqobat muhitini yaratishda davlat kichik va o'rta biznes subyektlarining faoliyatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki, KO'B subyektlari yirik korxonalariga nisbatan tezroq moslashish qobiliyatiga ega bo'lib, innovatsion yechimlarni joriy etishda, yangi ish o'rinlari yaratishda hamda mahalliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada kichik va o'rta biznes subyektlarini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatlar o'rtasidagi geosiyosiy keskinliklar va COVID-19 pandemiyasi tufayli milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari tubdan o'zgardi. Makroiqtisodiy jarayonlarning beqarorligi va tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi noaniqliklarning

kuchayishi davlatdan inqiroz hodisalarini bartaraf etish maqsadida tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi.

1998 va 2008-yillardagi iqtisodiy inqirozlar oqibatlarini bartaraf etish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta biznesni (KO‘B) davlat tomonidan manzilli qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, KO‘B subyektlari ishsizlikning oldini olishning eng samarali usullaridan biri

hisoblanadi. Shu bois, ularning moliyaviy barqarorligi va xavfsizligini ta‘minlash mamlakatning iqtisodiy o‘shishiga salmoqli hissa qo‘shadi.

Kichik va o‘rta biznes (KO‘B) subyektlarini rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy siyosati, bozor sharoitlari va mavjud resurslariga bog‘liq bo‘lib, ularni rivojlantirishning turli xil modellari mavjud (1-jadval).

1-jadval

Kichik va o‘rta biznes subyektlarini rivojlantirish modellari

T/r	Model nomi	Tasnifi
1	Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan model	Hukumat KO‘B subyektlarini qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va grantlar ajratadi.
2	Bozor tamoyillariga asoslangan model	Biznes subyektlari davlat aralashuvisiz mustaqil rivojlanadi va raqobatbardosh bo‘lish uchun bozor qonuniyatlariga moslashadi.
3	Innovatsion va texnologik model	Yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish orqali KO‘B subyektlarining rivojlanishi qo‘llab-quvvatlanadi.
4	Markazlashtirilgan rivojlanish modeli	KO‘B subyektlari yirik shaharlar va sanoat zonalarida jamlanadi.
5	Hududiy va qishloq tadbirkorligini rivojlantirish modeli	KO‘B subyektlari faoliyati mamlakatning chekka hududlari va qishloq joylarida rivojlantiriladi.
6	Bank tizimiga asoslangan model	KO‘B subyektlari rivojlanishi uchun tijorat banklaridan kreditlar jalb etiladi.
7	Venchur investitsiyalar va startup ekotizimi modeli	KO‘B subyektlari faoliyatini rivojlantirish uchun investorlar va venchur fondlari mablag‘laridan foydalaniladi.


Yuqoridagi jadvalda KO‘B subyektlari faoliyati iqtisodiy rivojlanish va qo‘llab-quvvatlash, hududiy rivojlanish hamda moliyalashtirish manbalari nuqtai nazaridan tavsiflangan. Har bir mamlakat o‘zining geografik joylashuvi, mavjud resurslari hamda infratuzilma obyektlarining holatidan kelib chiqib, KO‘B subyektlari faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilashi mumkin.

Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish iqtisodiy faoliyat yuritish shakllariga, huquqiy-me‘yoriy talab va bozor sharoitlariga bog‘liq

holda amalga oshiriladi. Tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxs sifatida yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik shaklida tashkil etilishi mumkin. Rivojlangan bozor tizimiga ega mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari ikki pog‘onali tuzilishga ega bo‘lib, birinchi pog‘onaga yirik monopoliyalar va transmilliy korporatsiyalar, ikkinchi pog‘onaga esa kichik va o‘rta biznes subyektlari kiradi. Yuqori pog‘onidagi tashkilotlar soni quyi pog‘onadagi tashkilotlarga nisbatan kam bo‘lib, ularning asosiy faoliyati yirik miqdordagi resurslarni talab etuvchi loyihalarni amalga oshirish bilan

bog'liq bo'ladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlarini

tashkil etishda turli xildagi yondashuvlardan foydalaniladi (1-rasm).



1-rasm. Turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes subyektlarini tashkil etish modellari

Kichik va o'rta biznes subyektlarini tashkil etishning xorijiy modelida tadbirkorlik subyekti dastlab startap shaklida shakllanadi, so'ngra uning faoliyatini kengaytirish va xodimlar sonini oshirish orqali mikrokorxonaga aylanadi. Samarali moliyaviy boshqaruv va muvozanatli kapital tuzilmasi natijasida moliyaviy barqarorlikka erishilgach, tadbirkorlik subyekti kichik korxonaga aylanadi. Shuningdek, agar moliyaviy resurslar yetarli va strategik rejalar ishlab chiqilgan bo'lsa, kichik korxonaga o'rta korxonaga aylantirilishi mumkin. Rossiya Federatsiyasida kichik biznes subyektlarini tashkil etishning dastlabki shakllari xorijiy modelga o'xshash bo'lsa-da, tadbirkorlik subyektlarining yirik korxonalar sifatida tan olinishi uchun o'rta tadbirkorlik shaklining yetarlicha rivojlanmaganligi yirik korxonalar shakllanish jarayonini biroz sekinlashtiradi.

Mamlakatimizda esa tadbirkorlik subyektlari startaplar ko'rinishida tashkil

etilmaydi, ammo, kichik tadbirkorlik subyektlari sirasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar (ta'sischilari jismoniy shaxslar bo'lgan hamda jami daromadi yil davomida 1 mlrd. so'mgacha bo'lgan tadbirkorlar) va kichik korxonalar (jami daromadi yil davomida 1-10 mlrd. so'm qiymatida bo'lgan tadbirkorlar) kiradi [2].

Tadbirkorlik subyektlarini hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Bunda nafaqat qisqa muddatli, balki uzoq muddatli maqsadlar ham inobatga olinishi lozim. Shuningdek, biznesni rivojlantirish yo'nalishlariga mos ravishda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda maqsadli yondashuv qo'llanilishi zarur. Tadbirkorlik subyektlarini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun 2-rasmda keltirilgan vositalardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

	banklarning kredit berish jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish;
1. Kredit tizimining samaradorligini oshirish:	garovsiz kredit olish imkoniyatlarini yaratish yoki innovatsion biznes uchun minimal garov talablari joriy etish;
	imtiyozli kreditlash dasturlari – kichik va oʻrta biznes uchun past foizli kreditlar ajratish;
	kichik biznes uchun mikrokreditlar ajratish tizimini rivojlantirish;
2. Kapital bozorini rivojlantirish:	qimmatli qogʻozlar bozorini rivojlantirish – kichik va oʻrta biznes subyektlariga obligatsiyalar chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish;
	moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilish – lizing, faktoring, kraudfanding kabi moliyaviy operatsiyalarini rivojlantirish;
	investorlarni jalb qilish – venchur kapital bozori va biznes “farishta”lari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash;
	korporativ boshqaruvni takomillashtirish – investitsiyalarni jalb qilish uchun shaffoflikni oshirish hamda sof foydani muntazam ravishda dividendlarga yoʻnaltirish amaliyotini joriy etish;
3. Davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish:	investitsiyalarni jalb qilgan tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlarni taqdim etish;
	eksport bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlarga davlat kafolatlari va kredit liniyalari ajratish;
	olis hududlarda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida maxsus dasturlarni ishlab chiqish;
	startaplar va innovatsion loyihalar uchun subsidiya va grantlar ajratish;
4. Moliyaviy savodxonlik va institutsional rivojlanish:	tadbirkorlar uchun moliyaviy taʼlim dasturlari (kreditlash, investitsiyalar va moliyaviy boshqaruv boʻyicha treninglar) tashkil etish;
	innovatsion biznesni qoʻllab-quvvatlash – startap akseleratorlari va inkubatorlarini rivojlantirish orqali yangi biznes tashabbuslarini moliyalashtirish.

2-rasm. Tadbirkorlik subyektlarini moliya-kredit mexanizmlari orqali ragʻbatlantirish vositalari

Tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishi koʻp jihatdan ularning ichki salohiyati va kommunikatsion muhitiga bogʻliq boʻladi. Biroq, birinchi navbatda, koronavirus pandemiyasi va geosiyosiy keskinliklar bilan bogʻliq muammolar sharoitida davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. 2020-yilda iqtisodiy jarayonlarning

sekinlashishiga olib kelgan global muammolar oqibatlarini bartaraf etish uchun hukumatlar tomonidan kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Buyuk Britaniya, Yevropa va Shimoliy Amerikada pandemiya va geosiyosiy keskinliklar davrida hukumat tomonidan kichik va oʻrta biznes subyektlarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida xodimlarga ish haqini toʻlash

hamda ijara xarajatlarini qoplash uchun subsidiyalar ajratildi.

Xulosa va takliflar.

Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun turli yondashuvlardan foydalaniladi. Ushbu yondashuvlar moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi, biznes muhitining rivojlanishi hamda tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini oshirishga qaratilgan.

Ko'pgina mamlakatlarda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida soddalashtirilgan va tezlashtirilgan dasturlar joriy etilib, garov, kafolat va kafilliksiz imtiyozli yoki foizsiz kreditlash amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan huquqiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash choralari milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga ko'maklashadi.

Inqiroz davrida kichik va o'rta biznes subyektlari tomonidan qarz mablag'larini jalb qilish to'g'risida qaror qabul qilishida quyidagi salbiy holatlar kuzatilishi mumkin:

- moliyaviy manbalarni jalb qilishning murakkabligi va ularning cheklanganligi. Inqiroz sharoitida daromadlarning kamayishi qarz majburiyatlarini o'z vaqtida so'ndirilishini qiyinlashtiradi. Bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit tarixiga salbiy ta'sir ko'rsatib, kredit va mikromoliya tashkilotlarining yanada konservativ siyosat yuritishiga sabab bo'ladi;

- qarz resurslaridan foydalanganlik uchun yuqori foiz stavkalarini to'lanishi kichik va o'rta biznes subyektlarining qarz yukini hamda xarajat majburiyatlarini oshiradi;

- kichik va o'rta biznes subyektlarining kredit yoki mikromoliya tashkilotlari tomonidan talab qilinadigan garov ta'minotiga ega emasligi.

Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun hukumat kichik va o'rta biznes subyektlarini moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashi, shuningdek, KO'B subyektlari biznes-rejalarni puxta ishlab chiqishi, risklarni tahlil qilishi hamda davlat tomonidan taqdim etilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan samarali foydalanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 21-sonli farmoni. 2023-yil 10-fevral.
3. Лино Маркес Коимбра. Теоретико-методологические основы предпринимательства и его значение в развитии экономики Мозамбика // Вестник ТГУ, выпуск 3 (143), 2015. [Электронный ресурс]. М.: Директмедиа Паблишинг, 2008.
4. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / пер. с нем. В.С. Автономова, М.С. Любского, А.Ю. Чепуренко и др. – М.: Эксмо, 2008. – 864 с.
5. Кейнс Д.М. Общая теория занятости, процента и денег. М.: Гелиос АВР, 2002.
6. Есенин М.А. Статистический анализ состояния и особенностей развития малых предприятий в России // Экономика, статистика и информатика. Вестник УМО. 2011. № 2. С. 157–162.
7. Калиничева Р.В., Ахрамеев А.Н. Аналитические процедуры аудита стратегии формирования циклов производства и продаж в малом бизнесе // Аудит и финансовый анализ. 2013. № 1. С. 180– 184.



8. O'ltmasov A., Sharifxo'jaev M. *Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Mehnat, 1995. 192 b.*
9. Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H., Topildiev S.R. *Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari. Darslik.-T.: "Iqtisod-moliya", 2019.-425 b.*